



## BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSALARINI MUAMMOLI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

**Iskandarova Muqaddas Bagandikovna**

*Toshkent shahar Olmazor tumani 28 - umumta'lism maktabining boshlang'ich sinf  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism matematika darsalarini muammoli o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritish operatsiyalarini va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lism va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining yangi tizimi, ko'proq o'quvchi fiklash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiylara taraqqiyoti va e'tiqodi shaklanish masalalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lism, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatlar tipologiyasi, muammoli dars.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены правила применения ранее известных методик обучения и обучения, которые были созданы с учетом операций логического мышления учащихся и закономерностей исследовательской деятельности учащихся, в проблемном обучении начальных классов математики. Обсуждается новая система, развитие мыслительных способностей учащегося, его общее развитие и формирование убеждений.

**Ключевые слова:** проблемное обучение, проблемная ситуация, типология проблемных ситуаций, проблемный урок.

**Annotation:** This article discusses the rules for applying previously known methods of teaching and learning, which were created taking into account the operations of students' logical thinking and the laws of students' research activities, in problem-based teaching of primary mathematics. The new system, the development of the student's thinking abilities, his general development and the formation of beliefs are discussed.

**Keywords:** problem learning, problem situation, typology of problem situations, problem lesson.

Muammoli ta'lism va muammoli vaziyat o'qitish tizimida faol, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi metod sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta'lism deganda muammolilik prinsiplarining uyg'unlashuvini hisobga olgan holda tuzilgan hozirgi o'qitish jarayonini tushinish maqsadga muofiqdir. Muammoli ta'lism - bu mantiqiy fikr yuritish operatsiyalarini (analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash (klasifikasiyalash) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ma'naviy ehtiyoj, anglashilgan mativ kabilarni) hisobga olib tuzilgan ta'lism va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining yangi tizimidan iboratdir. Shu bois u ko'proq





o'quvchi fiklash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy taraqqiyoti va e'tiqodi shaklanishini taminlashga xizmat qiladi[1].

Rivojlantiruvchi ta'lif texnologiyasining asosiy bo'g'ini muammoli ta'lif yo'nalishi sanaladi.

Muammoli ta'lif - ta'lif jarayonini olib borishda o'quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo'yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg'ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o'qituvchi tomonidan yoki o'quvchilar tomonidan qo'yilishi mumkin.

Muammoli ta'lif texnologiyalari - o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta'lif texnologiyasining asosi – insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli ta'lif o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntirish va uni yechish yo'lini topishni taklif qilish;
- bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qilish;
- hal etish uchun yetarli bo'limgan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni taklif etish.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini o'quvchilar bilan birlashtirishda topadi;
- o'quvchilarning o'zlarini muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli ta'lif yo'li bilan faollashtirishning maqsadi o'quvchilarni favqulotda, betartib ravishda vujudga keladigan fikrlash operatsiyalariga o'rgatish emas, balki ularni tushinchalarning o'zlashtirish darajasini oshirishlarini amalga oshiradi.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirish va amalga oshirish usullari – bu muammoli vaziyatni vujudga keltirishning didaktik usullarini aniqlashda, o'zbek didaktlarini va psixologlarining nazariyalariga asoslanamiz. U.Yangiboeva o'quvchilarning qobiliyati intellektual xususiyatlarga ko'ra muammoli vaziyatni hosil qilishning ikki xil turini ko'rsatadi[2].

O'zbek pedagogikasida muammoli vaziyatlar tipalogiyasini keng va bizning fikrimizga aniq aks ettiruvchi pedagogik xarakteristikani M.L.Maxmudov ko'rsatib bera oldi. Maxmudov tadqiqotlar analiziga asoslanib, pedagogik amaliyat uchun xarakterli va barcha predmetlar uchun umumiy bo'lgan muammoli vaziyatlarning to'rt xil tipini ko'rsatdi.



O'quvchilar ixtiyoriga bir yo'la bir nechta narsa, hodisa, fakt yoki voqeа havola qilinadi. Ular ko'p xossalari bilan bir-biriga o'xshaydi. O'quvchilardan ularning bir-biridan tub farqini yoki o'xshash xossalari aniqlash talab qilinadi.

Masala shartiga o'zaro turli bog'lanish va munosabatlarda bo'lgan ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, o'quvchilardan shu ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash talab qilinadi.

O'quvchilarga shunday masala tavsiya etiladiki, o'zlariga ma'lum usullar bilan bu masalani echa olishmasliklari sababli yangi usullar izlashga majbur bo'ladilar.

O'quvchilar uchun yangi vaziyat vujudga keltiradi va ularda almashtirishlarni bajarish talab qilinadi.

Masalaga ortiqcha ma'lumotlar kiritiladi, izlangan natijalarni topish uchun qaysi ma'lumotlardan materiali muammoli vaziyatni vujudga keltirishni ta'minlay oladi. Bunday paytda fanning yangi ma'lumotlaridan foyddalanish zarur bo'lib qoladi.

Ikkita va undan ortiq to'plam komponentlari orasidagi bog'lanishlarni taqqoslash va ular o'rtasidagi o'xshashliklarni topish talab qilinadi. O'quvchilar ma'lum o'quv materialini bilmay turib, bu komponentlarni mos keltirishlari mumkin.

Muammoli dars va uning tuzilishi - muammoli ta'limni nazariy va amaliy takomillashtirayotgan psixolog va pedagoglar, muammoli darsni tashkil qilish masalasiga katta e'tibor bermoqda. M.L.Mahmudov, U.Yangiboyeva, N.U.Bikbayeva, R.Qosimova va bu kabilarning ilmiy ishlari muammoli darsni tashkil etishning xususiyatlarini ochib berishga qaratilgandir.

Muammoli darsning strukturasi qanday?

Mashhur o'zbek pedagogi N.U.Bikbayeva muammoli dars strukturasini quyidagi bosqichlarga bo'ladi:

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, buning uchun:

a) muammoni anglash;

b) o'quvchilarni muammoga qiziqtirish. Ularni muammoni yechishga harakatlarini uyg'otish.

2. Muammoni yechishdagi qiyinchilikdan qutilish yo'lini aniqlash, xususiy muammolarni ajratish va ularni yechish navbatini o'rgatish.

3. Xususiy muammolarni individual, guruhiy, jamoa hal qilish (yechish) yechim natijalarini tekshirish va xatolarni tuzatish.

4. Xususiy muammolarni yechish natijalarini umumlashtirish va muammoni tahlil qilish.

Muammoli ta'limni to'rt darajaga ajratish mumkin.

a) mustaqil bo'limgan, odatdagи, faollik darajasi - o'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi, muammoli vaziyat sharoitida aqliy mehnat usullarini o'zlashtirish, o'quvchilar tomonidan mustaqil ishlarning boshlanishi, esga tushirish xususiyatiga ega bo'lgan mashqlar, og'zaki esga tushirish;



b) yarim mustaqil faollik darajasi ilgari bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarini yechish usullarini izlashda, ishtirok etishlari bilan tavsiflanadi;

v) mustaqil faollik darajasi – reproduktiv izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgarigi bilimlarini yangi vaziyatda qo'llashadi, (ko'chish jarayoni yuz beradi), qayta quradi, o'zgartiradi, o'rtacha murakkablikdagi muammolarini, topshiriqlarni hal qiladi, o'qituvchining biroz yordami bilan farazlarni isbotlaydi;

d) ijodiy faollik darajasi – ijod tasavvurlarini talab etuvchi mantiqiy tahlil qilish, o'ylab topishi, o'quv muammolarini hal qilishning yangi usullarini kashf etishi, mustaqil isbotlashi, mustaqil xulosalar chiqarishi, umumlashtirishni, kashfiyat va ijodiy faoliyat maxsulini talab qiladi.

Muammoli vaziyat oldidagi asosiy vazifalar, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1) o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi, aqliy va amaliy faoliyat usullari hamda yo'llarini o'zlashtirish;

2) mustaqil bilim va ijodiy faoliyatni o'stirish;

3) muayyan e'tiqodli, shaxsiy qarashli, iymonli shaxsni shakllantirish.

Muammoli ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan tashkil topgan:

a) bilimlarni ijodiy o'zlashtirish malakalarini shakllantirish (mantiqiy fikrlash, usullari, ijodiy izlanishli, faoliyat vositalarini qo'llash);

b) bilimlarni yangi sharoit va vaziyatga, holatda ijodiy qo'llash (ko'chirish) malakasini va muammoni hal qilish ko'nikmasini hosil qilish;

v) ijodiy faoliyat tajribasini umumlashtirish va yoyish [2].

Muammoli o'qitishda o'quv materialini bayon etish jarayoni izohli tushuntirish metodidan foydalanib, shu materialni bayon etishga qaraganda biroz keskinlashadi, lekin bu vaqt ni o'quv materiallarini takrorlash va mustahkamlash jarayonida yetkazib olish mumkin. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uni hal etish mobaynida quyidagi ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin: predmetli rasmlar, geometrik shakllarning modellari, shakllar tasvirlangan plakatlar, chizmalar, diafilmlar, qog'oz tasmalari, sanash tayoqchalari va boshqalar. Ko'rgazmali qurollar yordamida muammoli vaziyatni vujudga keltirishning xilma-xil usullarini topish mumkin.

1-usul. O'quvchilarga topshiriq beriladi: Masalan: o'qituvchi doskaga yoki magnit doskasiga bir nechta qizil hamda ko'k to'rburchak va beshburchaklarni joylashtirib o'quvchilarga muammoli savol beradi: «Nima uchun barcha qizil rangdagi shakllarni to'rburchaklar, ko'k rangdagilari beshburchaklar deb ataymiz?».

2-usul. O'qituvchi tushuntirgan qoida bilan darslikdagi qoidaning shaklan aynan to'g'ri kelmasligi, darslikdagi qoidalarga rasm, plakatlarning ma'lumotlarining qarama-qarshiligini, o'qituvchining so'zi bilan boshqa OAV ma'lumotlarining, ota-onalarning ko'rsatgan ko'rgazmalarining to'g'ri kelmasligi va boshqalar.

Muammoli ta'limni amalga oshirishda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan individual yondashish ishini sinf jamoasi bilan bog'liq holda ish olib borish katta



ahmiyat kasb etadi. Bari bir, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga alohida yondashish zarurdir, chunki ularda beqarorlik halotlari tez-tez uchrab turadi, muammoni o'zicha hal etish iqtidoriga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi bolalardagi ixtiyoriy diqqatning, tafakkurning rivojlanishini ta'minlash zarur.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari, shu jumladan boshlang'ich ta'limgari tajribasida muamamoli ta'limning bir nechta varianti qo'llaniladi: a) mashg'ulotlarni muammoli qo'yish va bajartirish shaklida, b) mashg'ulotlarning boshlanishida muammolarni qo'yish va uning yechimiga asoslanib bilimlarni bayon etish, v) o'quv materallarining bir qismini izohli-ko'rgazmali ta'lim, g) qolgan qismini muammoli ta'lim shaklida o'rganish[3].

Muammoli ta'lim qator afzalliklarga ega. Ta'limning bolalar tafakkuriga mo'ljallanganligi. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlarining ko'pligi ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida o'quvchilar bilim tizimini, o'quv ko'nikmalari va malakalarini egallab olish orqali o'zlarining bilimlari hajmini ko'paytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushinchalarning tub ma'nosi ular ongiga singib boradi. Bu ishlarning barchasini izchillik bilan ketma-ket bir tekis amalga oshirish uchun o'quvchilar ma'lum darajada va ko'nikmalarni egallagan, qolaversa, tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish) va mantiqiy fikr yuritish qoidalari hamda uslublarini o'zlashtirib olgan bo'lishlari lozim. Shunday qilib, o'qitishning faol va innovatsion metodlari yuzaga keladiki, ular qatoriga ta'lim jarayonini mazmunan umumlashtirish nazariyasi, aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi, ta'limni dasturlashtirish nazariyasi, o'quvchilarda ma'naviy ehtiyojni shakllantirish, o'quvchilarda bilimga qiziqishni tarkib toptirish, ta'limni umumlashgan usullar orqali amalga oshirish maqsadga muofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madyarova S.A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-Moliya, 2009 y
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T.: "Iqtisodiyot", 2012 y
3. Jumaboyev M.E., Gadjiyev Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 2005 y.
4. WWW.edu.uz
5. [WWW.ziyonet.uz](http://WWW.ziyonet.uz)